



INFLYATSION TARGETLASH DAVR TALABI

Mingboyev.I.A

Toshkent moliya instituti “Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
yo’nalishi 2-kurs MMT-86 guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6044519>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01 - fevral 2022
Ma’qullandi: 05 – fevral 2022
Chop etildi: 10 – fevral 2022

KALIT SO’ZLAR

*Keng ko’lamli o’zgarishlar,
Inflyatsiya, Targetlash.*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'z navbatida, inflyatsion targetlash rejimining qo'llanilishi narxlar barqarorligini ta'minlash orqali o'rta muddatli istiqbolda mustahkam va barqaror iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishi mumkin. Markaziy bank inflyatsiya darajasining eng mos maqsad (target)ini aniqlab olib, unga pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanishni muntazam tahlil qilish va pul-kredit siyosati rejalarini keng yoritish orqali erishish mumkinligi tahlil qilinadi.

Inflyatsiya darajasini oldini olish hamda narx-navo ko'tarilib ketishiga yo'l qo'ymaslik barcha zamonda, xususan, hozirgi davrda nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega. Shu bois keyingi yillarda yurtimizda bu yo'nalishda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, muayyan yutuqlarga erishilayotganini aytish o'rinlidir. Inflatsiya darajasini yanada pasaytirish borasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi aholi turmush darajasini yaxshilash va barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Iqtisodiyotda narx- navoning oshishi jarayoniga inflyatsiya deyiladi. Inflyatsiya o'z navbatida davlat pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi. Pulning qadrsizlanishi deb, unga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar miqdorining kamayishiga aytiladi. Agar narxlar oshsa,

ma'lum miqdordagi sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar miqdori kamayadi. Bu esa pulning qadrsizlanishidan dalolat beradi. . “Target” so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, “maqsad” degan ma'noni anglatadi. Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (target) o'rnatiladi.

Inflasyon targetlashga o'tish orqali nimalarga erishamiz?-degan savolga javob beradigan bo'lsak: Khakimjanova Kamola. (2022). THEORETICAL FOUNDATIONS OF PHYSICAL EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATION. Eurasian Journal of Academic Research, 2(2), 52–55. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6044441>

Birinchi navbatda, inflasyon targetlash rejimining samarali joriy etilishi iqtisodiyotda narxlar barqarorligiga va 2023 yilga qadar inflyasiyaning uzoq muddatli 5 foizlik maqsadli ko'rsatkich atrofida bo'lish imkonini beradi. Past darajadagi inflyatsiya esa aholining turmush



darajasini yaxshilash bilan birgalikda, iqtisodiyotda biznes va investision muhitni yaxshilaydi. Shuningdek, narxlar barqarorligi aholining milliy valyutaga bo'lgan ishonchini oshiradi va shu orqali iqtisodiyotda dollarlashuv darajasining pasayishiga hamda milliy iqtisodiyotga ichki va tashqi investisiyalarning o'sishiga ijobiy tasir ko'rsatadi. Targetni har bir davlat o'zi ma'lum bir omillarni hisobga olib belgilaydi. Buning biron joyda shuncha bo'lsin deb aniqlik qo'yilgan qoidasi yo'q. 2023 yida 5 foizlik inflyasion targetga erishish bu maqsad. Lekin, bu maqsadni amalga oshirish mumkin. Buning uchun eng avvalo, Prezidentimiz Farmonlarida va "yo'l xaritasida" belgilab berilgan kompleks va tizimli vazifalarni o'z vaqtida va samarali bajarishimiz zarur. Bunda, har bir vazirlik va idoraga alohida topshiriqlar berilganki, hammasi bitta maqsad inflyasiyani pasaytirish va belgilangan 5 foizlik target darajaga olib tushushga yo'naltirilishi kerak. Inflyasiyoning targetlashda o'zaro ishonch juda muhim rol o'ynaydi. Biz ochiq bo'lsak, qabul qilinayotgan qaror nimaga asoslanganligini va qaysi maqsadlarni ko'zlaganligini va bular ijrosining natijadorligini batafsil yoritib borsak, aholi va tadbirkorlarning bizga bo'lgan ishonchi ortib boradi. Markaziy bank faoliyati shaffofligining ortishi va faol kommunikatsiya siyosatining yuritilishi aholi va biznesning amalga oshirilayotgan islohotlarga bo'lgan ishonchi ortadi, inflyasion kutilmalari belgilangan maqsad doirasida bo'ladi.

Xalqaro tajriba bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit siyosatini yuritishning samarali usullaridan biri inflyasion targetlash rejimi ekanligini

ko'rsatmoqda, bunda pul-kredit bozoridagi markaziy bankning faol ishtiroki, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning muntazam tahlili va davlat siyosati rejalarining keng yoritib borilishi inflyasiyaning miqdoriy maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3272-sonli "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida pul-kredit siyosatini takomillashtirish bo'yicha bir qator muhim chora-tadbirlar belgilandi. Xususan, mazkur Qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ichki narxlarning barqarorligini taminlashda o'rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosati maqsadlariga erishish prensip va mexanizmlarini xorijiy markaziy banklari tomonidan qo'llaniladigan inflyatsiyaviy targetlash rejimiga o'tish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi.

Hozirgi zamon inflyatsiyasi nafaqat tovarlar va xizmatlarga bo'lgan baholarni muntazam o'sishi natijasida pulning sotib olish qobiliyatini pasayishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonidagi nomutanosiblik, pul muomalasi, moliya hamda kredit sohasidagi salbiy omillar bilan tasniflanadi. Inflyatsiyaning yuzaga chiqishining asosiy sabablari bo'lib iqtisodiyot tarmoqlari, jamg'arma va iste'mol, talab va taklif, davlat daromadlari va xarajatlari, xo'jaliklarning pul massasi va unga bo'lgan talabi o'rtasidagi mutanosiblik hamda markaziy bankning kredit ekspansiyasi hisoblanadi. Ushbu ta'kidlab o'tgan omillar o'z mohiyatiga asosan inflyatsiyaga, uning darajasiga turlicha ta'sir etishi mumkin. Iqtisodiyotimizning jahon xo'jalik va iqtisodiy-moliyaviy tizimiga



integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini inobatga oladigan bo'lsak, jahon moliyaviy inqirozi, avvalo uning oqibatlari bizga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotgani haqida gapirib o'tirishning hech qanday zarurati bo'lmasa kerak, deb o'ylayman. Avvalo, inflyasiyani jilovlamasdan turib, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin emas. Hozirgi kunda inflyasion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri bo'lib, ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda.

Nima uchun inflyasion targetlash rejimidan foydalanish kerak?

Inflyasion targetlash rejimi bir necha makroiqtisodiy maqsadlarga erishish imkonini beradi:

- Narxlarning keskin oshishi va yuqori inflyasiyani oldini olish;
- Pul bozorini shakillashtirish, pul bozorini segmentlash sabablarini bartaraf etish;
- Ichki va tashqi omillarni xisobga olgan holda, aholi va tadbirkorlarning to'lov qobiliyatini qo'llab-quvvatlash hamda moliya sektorining barqarorligini ta'minlash.

Rossiya Markaziy banki tomonidan qo'llanilayotgan inflatsion targetlash rejimida 2017 yilning oxiriga borib, inflatsiyaning yillik darajasini 4 foizga yetkazish maqsadi qo'yilgan

edi. 2016 yilda amalga oshirilgan chora-tadbirlar ushbu maqsadga erishish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Ya'ni 2016 yilning yakuniga kelib, Rossiyada inflyasiyaning yillik darajasi 5,4 foizni tashkil qildi. Xolbuki, 2015 yil 31-dekabr xolatiga ko'ra, Rossiyada inflyasiyaning yillik darajasi 12,9% bo'lgan edi. 2016 yilning iyun oyiga kelib, inflyasiyaning darajasi sezilarli darajada pasaytirishga erishilganligi Rossiya Markaziy bankiga qayta moliyalash stavkasini pasaytirish imkonini berdi.

Inflatsion targetlash rejimini samarali joriy qilish uchun pul-kredit siyosati inflatsiyaning belgilangan maqsadli darajasiga erishish zaruriyatidan kelib chiqib, bozor instrumentlari ta'sirini qo'llagan holda banklararo pul bozoridagi foiz stavkalarini Markaziy bank intervensiyalari orqali samarali boshqarish yo'li bilan amalga oshirilishi lozim.

Xulosa qilib, shuni aytib o'tish mumkinki, inflatsiya har qanday davlat uchun xavfli hisoblanadi. Inflyatsiyaning har tomonlama avj olib ketishi mamlakatda sotsial va iqtisodiy jihatdan qarama-qarishliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Shuning uchun, davlat inflyatsiyaning oldini olish, pul muomalasini barqarorlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Inflyatsiyaga qarshi kurashning asosiy shakllari: pul islohati va inflyatsiyaga qarshi siyosat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ПФ-5877-сн 18.11.2019 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni
2. X. Nazarova. "Makroiqtisodiyot" fanidan ma'ruzalar matni.
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston. 2017y
4. X.S.Xadjaev, I.A.Bakiyeva, Sh.Sh. Fayziev. Makroiqtisodiyot (O'quv qo'llanma) - T.:
5. <http://www.cbu.uz>- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti

